



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№8(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 52 sahifa,
24-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oliy badiiy-pedagogik ta'limda an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va innovatsion klaster yondashuvi integratsiyasining metodologik asoslari	10
<i>Sultonov Xaytboy Eraliyevich</i>	
Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	14
<i>Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi</i>	
Ta'lim jarayonida raqamli platformalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish pedagogik muammo sifatida....	19
<i>Tengelbayeva Dinora Muratovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ekologik ta'lim va tarbiyalashning muammo va yechimlari.....	25
<i>Abduraxmonova Muqaddas Oblokulovna</i>	
Axborotlashgan ta'lim muhitida telematika texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va ularning talaba shaxsini rivojlanishidagi o'rni.....	30
<i>Botiraliyev Dildorbek Muzaffar o'g'li</i>	
Mehnat migratsiyasi fenomeni va oila dialektikasining pedagogik aspektlari: translokallik sharoitida farzand tarbiyasi va "intelektual transfer" mediatsiyasi.....	34
<i>K. B. Numanov</i>	
Maktab rahbarlarini karyera pog'onalari asosida tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslari	38
<i>Ismailov Abduvali Abdumalikovich</i>	
CEFR B1 mezonlari asosida 10 va 11-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarni loyihalash metodikasi.....	45
<i>Ergasheva Feruza Davlatali qizi</i>	
Talabalarda raqamli toliqish darajasi va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili	48
<i>Xamdanova Muazzamxon Xabibullo qizi</i>	



CEFR B1 MEZONLARI ASOSIDA 10 VA 11-SINF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA IJODIY TOPSHIRIQLARNI LOYIHALASH METODIKASI

Ergasheva Feruza Davlatali qizi

O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

Ingliz tili ixtisosligi bo'yicha 3-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada CEFR (Umumyevropa til bilish kompetensiyalari tizimi) B1 darajasi mezonlari asosida yuqori sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan ijodiy topshiriqlarni loyihalash va ularni samarali qo'llash metodikasi yoritiladi. Maqolada ijodiy topshiriqlarning amaliy ahamiyati, ularni tanlash va ishlab chiqish prinsiplari, dars jarayonida qo'llash usullari batafsil ochib beriladi. Shuningdek, ijodiy topshiriqlarning o'quvchilarning nutq salohiyatini va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni hamda yutuqlari haqida mavjud ilmiy adabiyotlar asosidagi tahlillar keltiriladi. Mazkur maqola pedagoglar va til o'qituvchilari uchun nazariy va amaliy yordam sifatida mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: CEFR, B1 daraja, og'zaki nutq, ijodiy topshiriq, metodika, yuqori sinf, kommunikativ kompetensiya, til o'rganish, dars jarayoni, interaktiv metod.

Abstract: This article discusses the methodology for designing creative tasks aimed at developing oral speech of senior students based on the criteria of the B1 level of the CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) and their effective use. The article describes in detail the practical importance of creative tasks, the principles of their selection and development, and the methods of their use in the teaching process. It also provides an analysis of the role and achievements of creative tasks in the development of students' speech potential and communicative skills based on existing scientific literature. This article is intended as a theoretical and practical aid for educators and language teachers.

Key words: CEFR, B1 level, oral speech, creative task, methodology, senior class, communicative competence, language learning, teaching process, interactive method.

Аннотация: В данной статье рассматривается методология разработки творческих заданий, направленных на развитие устной речи старшеклассников на основе критериев уровня B1 Общеввропейской системы оценки языковых компетенций (ОЭКК), и их эффективное использование. В статье подробно описывается практическое значение творческих заданий, принципы их отбора и разработки, а также методы их применения в учебном процессе. Также приводится анализ роли и достижений творческих заданий в развитии речевого потенциала и коммуникативных навыков учащихся на основе существующей научной литературы. Данная статья предназначена в качестве теоретического и практического пособия для педагогов и преподавателей языков.

Ключевые слова: ОЭКК, уровень B1, устная речь, творческое задание, методология, старшеклассники, коммуникативная компетенция, изучение языка, учебный процесс, интерактивный метод.

KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim jarayonida til o'rgatishda zamonaviy va innovatsion metodlarga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. Ayniqsa, ingliz tilini o'qitishda xalqaro standartlarga asoslangan yondashuvlar, xususan, CEFR mezonlari asosida yangi metodikalarning joriy qilinishi o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Yuqori sinf o'quvchilarining og'zaki nutq kompetensiyasini shakllantirishda ijodiy topshiriqlarning roli katta. Bunday topshiriqlar orqali o'quvchilar o'z fikrini mustaqil ifodalash, yangi g'oyalarni ilgari surish, muloqot va muhokama ko'nikmalarini mustahkamlash imkoniga ega bo'ladi.

CEFR tizimi bo'yicha B1 daraja mezonlari kommunikativ kompetensiyaga erishish, mustaqil nutq va fikr almashish malakasini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. O'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlardan foydalanish ularning faolligini oshiradi, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Ijodiy topshiriqlar orqali o'quvchi real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish, ular bo'yicha mustaqil xulosa



chiqarish, o'zining fikrlash uslubiga mos holda so'zlashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa CEFR tizimidagi kommunikativ kompetensiyaning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Bunday topshiriqlar dars jarayonini standart savol-javoblar bilan cheklab qo'ymasdan, har bir o'quvchini faol fikr almashishga jalb qiladi. Ijodiy topshiriqlarning asosiy ustunligi shundaki, ular o'quvchilarning individual qiziqishlari, bilim darajalaridan kelib chiqib loyihalanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

CEFR mezonlari asosida og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish masalalari qator xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Xususan, Brian North va Enrica Piccardo tadqiqotlarida CEFR deskriptorlarini takomillashtirish, kommunikativ faoliyat, o'zaro muloqot va til o'rganuvchining real kommunikativ vaziyatlardagi faol ishtirokini baholash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu yondashuv B1 darajasidagi o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda kommunikativ va hamkorlikka asoslangan topshiriqlardan foydalanish muhimligini ko'rsatadi.

Rod Ellis topshiriqqa asoslangan til o'qitish yondashuvida topshiriqlarni o'quv maqsadi, murakkablik darajasi, bajarish shartlari va kutilayotgan natijalar asosida loyihalash masalalarini yoritgan. Uning tadqiqotlari kommunikativ topshiriqlarni o'quvchilarning til darajasi va imkoniyatlariga muvofiq bosqichma-bosqich tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

Jack C. Richards kommunikativ til o'qitish va og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan sinf faoliyatlarini tashkil etish masalalarini tadqiq qilgan. Mazkur yondashuvga ko'ra, o'quvchilarni real muloqotga yaqin vaziyatlarga jalb etuvchi suhbat, muhokama va boshqa kommunikativ faoliyatlarni og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Penny Urning til o'qitish metodikasiga oid qarashlarida esa munozara, rolli o'yin va boshqa interaktiv topshiriqlar o'quvchilarning og'zaki muloqotda faol ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiruvchi vositalar sifatida qaraladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ijodiy topshiriqlardan foydalanilganda o'quvchilarning og'zaki nutqi tez va sifatli rivojlanadi. Bunday topshiriqlar orqali o'quvchilar o'z fikrini ochiq aytishga, asossiz hayajon va qo'rquvni yengishga o'rganadi. Shuningdek, ular kundalik darslarda ko'proq ishtirok etib, o'z-o'zini rivojlantirish, bilimni mustaqil to'ldirish va nutq odobiga rioya etish kabi muhim ko'nikmalarni shakllantiradi. Har bir ijodiy topshiriq natijasida o'quvchi o'zlashtirgan yangi so'z boyligi, grammatik qoidalar, muloqot etiketi kabi bilimlar amaliy muhitda mustahkamlanadi.

10–11-sinfda CEFR B1 mezonlariga muvofiq darslik va qo'llanmalarda ijodiy topshiriqlar doirasini kengaytirish, har bir darsda kamida bitta erkin fikrlashga, muloqotga, munozaraga yo'naltirilgan topshiriq tashkil etish dars samaradorligini oshiradi. Masalan, bolalardan biron ijtimoiy muammoni muhokama qilish, turli rolli o'yinlar orqali o'zini trener, jurnalist yoki ko'rsatuvchi sifatida namoyon etish, videomaterial yoki kutilmagan holat yuzasidan fikr bildirishi uchun erkin platforma yaratilsa, ular atrofidagi odamlar bilan faol muloqot jarayoniga kirishadi.

Har bir darsdan so'ng o'quvchilarni kichik prezentatsiyalarga, loyiha natijalarini taqdim etishga rag'batlantirish ham nutq rivojini jadallashtiradi. O'quvchilarga topshiriq berganda aniq vazifa, vaqt va mavzuni belgilab qo'yish muhim. Misol uchun, xayoliy holatdagi bir voqea bo'yicha intervyu shaklida so'zlashish, ixtiyoriy mavzu yoki future profession haqida gapirish, qisqa munozara o'tkazish yoki biror ochiq savolga iliq va asosli javob tayyorlash kabi metodlar yaxshi natija beradi. Ijodiy topshiriqlar darslarni jonlantiradi, har bir o'quvchiga o'zini isbotlash, o'z fikrini ishonch bilan ifodalash imkoniyatini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish, masalan, internet manbalari, videolar, interaktiv dasturlar va ijtimoiy tarmoqlardagi tillarni o'rganishga yo'naltirilgan platformalar yordamida ijodiy topshiriqlar samaradorligini oshirish mumkin. O'quvchilar onlayn forumlarda muloqot qilish, videobloglar tayyorlash, virtual rolli o'yinlar o'tkazish orqali til muhitini yanada kengroq va tabiiyroq his qilishadi. Bunday usullar orqali ham nutq tayyorlash, gaplarni tuzishda erkinlik va mustaqillik shakllanadi, til muhitidan chetga chiqmagan holda o'z fikrini ingliz tilida aniq va aniqlik bilan ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ijodiy topshiriqlardan samarali foydalanish uchun o'qituvchi har bir o'quvchining psixologik xususiyatini, individual yondashuvini inobatga olishi, rag'batlantiruvchi muhit yaratishi, xatolardan qo'rqmaslik va bosim sezmaslik uchun harakat qilishi muhim. O'qituvchi ijodiy topshiriqlarni tanlayotganda, ularning mantiqan rivojlantirishini, og'zaki nutqning bosqichma-bosqich o'sishini va darslarning saviya jihatidan to'g'ri kelishini ta'minlashi



lozim. O'qituvchi o'quvchini noto'g'ri javobdan, xato fikrdan dakki bermasdan, aksincha, rag'batlantirib va izoh berib, ijobiy muhit hosil qilishi kerak.

CEFR B1 mezonlari asosida 10 va 11-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirish uchun ijodiy topshiriqlarni loyihalash metodikasi samarali natijalar berdi. Ushbu metodikani qo'llash natijasida o'quvchilarning so'z boyligi ortdi, ular o'z fikrini aniq va ravon ifoda eta olishni o'rgandilar. Darslarda o'quvchilar mustaqil fikrlash, o'z nuqtai nazarini himoya qilish va ijtimoiy mavzularda erkin suhbat qila olish ko'nikmalarini egallashdi. Ijodiy topshiriqlar orqali o'quvchilar o'z hayotidan misollar keltirib, turli mavzularda hikoya tuzish, voqealarni tasvirlab berish va o'z orzulari haqida gapira olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu jarayon ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini, talqin va tahlil qilish malakasini ham rivojlantirdi.

Mashg'ulotlar davomida o'quvchilar guruhlarda ishlash, rolli o'yinlar o'ynash, real hayotiy vaziyatlarga oid dialog va suhbatlar tashkil etish orqali bir-birlari bilan samarali muloqot qila oldilar. Darslarda doimiy ravishda ijodiy topshiriqlar bilan shug'ullangan o'quvchilar nutqini erkin tashkil etish, o'z fikrini asosli tarzda bildirish va muhokama qilishga qodir bo'lishdi. Shu bilan birga, ular o'zaro fikr almashish, mulohazalar bilan o'rtoqlashish, turli bahslarda o'z pozitsiyasini bayon qilishga o'rganishdi. Natijada o'quvchilarda nutq faolligi, til ko'nikmalari va ishonch darajasi ortdi, til o'rganishga bo'lgan qiziqish va motivatsiya ham sezilarli darajada kuchaydi.

CEFR B1 mezonlariga ko'ra tuzilgan ijodiy topshiriqlardan samarali foydalanish o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda muhim natijalar berdi. Bu metodikaning qo'llanilishi o'quvchilarning ijodkorligini oshirib, ularni erkin muloqot va mustaqil fikrlashga yo'naltirdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

CEFR tizimi va B1 daraja mezonlari asosida o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarni to'g'ri loyihalash va samarali dars jarayonida qo'llash o'quvchilar til ko'nikmasining barcha jihatlarini, ayniqsa, erkin va mustaqil gapirish, muloqot qilish malakalarini chuqur rivojlantiradi. Ijodiy topshiriqlar orqali yuqori sinf o'quvchilari nafaqat chet tilining grammatik va leksik jihatlarini, balki tanqidiy va ijodiy fikrlash, jamoada ishlash, muammoni mustaqil hal etish, ochiq muloqotga kirishish, o'z fikrini real hayotiy vaziyatda bayon qilish ko'nikmalarini ham egallashadi. Bu metodika orqali ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirish, o'quvchilar motivatsiyasini kuchaytirish va ularni kelajakdagi kasbiy faollikka tayyorlash mumkin.

Maqolada bayon qilingan metodik yondashuvlar nafaqat xorijiy tillarni o'rgatishda, balki boshqa fanlarni o'qitishda ham keng qo'llash mumkin bo'lgan universal ahamiyatga ega. Har bir o'qituvchi, zamonaviy pedagog ushbu tamoyillarni o'z dars jarayoniga tatbiq etib, o'quvchiga individual yondashsa, ta'limda yuqori samaradorlik va sifatga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedov Sh. Ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv. – Toshkent, 2015.
2. Khodjayeva N. Loyiha asosida til o'rganish metodlari. – Toshkent, 2012.
3. Karimova S. I., Akhmedova M. R. Zamonaviy dars qurilishining metodik asoslari. – Toshkent, 2016.
4. Mamarasulov B. M. Chet tillarini o'qitishda interaktiv metodlar. – Toshkent, 2019.
5. Shukurova D. U. Ingliz tilini o'qitishda ijodiy topshiriqlarning o'zni. – Ma'rifat, 2017.
6. Rashidova D. Til o'rganishda motivatsiya va ijodkorlik. – Toshkent, 2016.
7. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2014.
8. Zokirova N. A. Chet tili darslarida kommunikativ kompetensiya. – Toshkent, 2016.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.